



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQUARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....	314
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOIIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARI.....	319
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QO'SHILGAN QIYMATNI TAQSIMLASHNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID XORIJ TAJRIBALARI.....	326
A.A. Bobomurodov	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT" TIZIMIGA O'TISH ZARURIYATI VA XIZMATLAR SOHASI UCHUN IQTISODIIY AHAMIYATI.....	333
Y.M.Xalikov	
OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	342
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
YOSHLARNING RAQAMLI MEHNAT PLATFORMALARIDA BARQAROR BANDLIGINI RISKKA ASOSLANGAN STRATEGIK BOSHQARISH.....	349
Palvonova Sevara Baxromovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	355
Almanov Ilhom Sultonovich	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI GEYMIKATSIYALASH ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA IQTISODIIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	362
Aslonova Rushano Ilxomovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIIY NATIJADORLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH.....	368
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
HUDUDLARNING IQTISODIIY RIVOJLANISHIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	374
Xolmatov Azamatjon Abdupattoyevich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКСПОРТНОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	380
Муниса Турдибаева	
LOYIHA MENEJERLARINING SOFT SKILLS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING LOYIHALAR IQTISODIIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	394
Zairova Farida To'xtamurod qizi	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIIY KO'RSATKICHLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH.....	400
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	407
Jumaev Sohob Baxodirovich	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI VA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TRANSFORMATSIYON MODELII.....	412
Murodullayeva Guljaxon A'zamjon qizi	
INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY VA USLUBIIY ASOSLARI	418
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	426
Olimboyeva Nazokat Abdujabbor qizi	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARIDA INTEGRALLASHGAN RISKKA YO'NALTIRILGAN AUDIT MODELIDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI.....	431
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	441
Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT FAOLIYATINI SOLIQ MEXANIZMLARI ASOSIDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH	446
O'rinova Umida Qodirjonovna	
SOG'LIQNI SAQLASHNING YAGONA RAQAMLI EKOTIZIMIDA KIBERXAVFSIZLIK RISKLARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	450
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
XORAZM VILOYATIDA YER BOZORI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	456
Ubaydov Mirshod Ismailovich	
O'ZBEKISTON UY-JOY BOZORIDA MOLIYAVIY PUFAK XAVFINI BAHOLASH: INTEGRAL INDEKSNI SHAKLLANTIRISH VA EKONOMETRIK TAHLIL	462
Botirov Islombek Ulug'bek o'g'li	
SUTCHILIKGA IXTISOSLASHGAN CHORVACHILIK KORXONALARIDA TANNARXNING BUXGALTERIYA HISOBINING OBYEKTI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	467
Razzoqov Abbas Abdumalik o'g'li	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLAR ICHKI AUDITINING INSTITUTSIONAL-TASHKILY MEXANIZMI	472
Mulayev Farxod Alisherovich	
SHAHAR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK BARQARORLIK TAMOYILLARINI JORIY ETISH: MUAMMOLAR, INNOVATSION YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR.....	477
Nurtayev Zaxriddin	
SANOATNING «DRAYVER» SOHALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI JADALLASHTIRISH	482
Xolbozorov Muzraf Yusup o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ЦИФРОВОГО СТРАХОВАНИЯ ТУРИСТСКИХ РИСКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	489
Усманова Азиза Бахтиер кизи	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI.....	497
Rajabov Saidrasul Xalil o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

Rajabov Saidrasul Xalil o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni takomillashtirishning nazariy-konseptual asoslari tizimli tahlil qilingan. Aholiga bank xizmatlarining iqtisodiy mazmuni, ularning bank faoliyatidagi o'rni, xizmatlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, mijozlarga yo'naltirilganlik, raqamli transformatsiya va moliyaviy inklyuziya masalalari yoritilgan. Muallif tomonidan aholiga bank xizmatlarini takomillashtirishning integratsiyalashgan konseptual modeli hamda xizmatlar samaradorligini kompleks baholash ko'rsatkichlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aholi, bank xizmatlari, chakana bank xizmatlari, raqamli bank xizmatlari, moliyaviy inklyuziya, mijozlarga yo'naltirilganlik, bank mahsulotlari, xizmat sifati, bank innovatsiyalari, raqamli transformatsiya.

Abstract. This article systematically examines the theoretical and conceptual foundations for improving banking services provided to the population by commercial banks. It clarifies the economic content and role of household banking services, identifies major development factors, and discusses customer orientation, digital transformation and financial inclusion. An integrated conceptual model for improving banking services to the population and a system of indicators for comprehensive performance assessment are proposed.

Keywords: commercial banks, population, banking services, retail banking services, digital banking, financial inclusion, customer orientation, banking products, service quality, banking innovation, digital transformation.

Аннотация. В статье системно исследованы теоретико-концептуальные основы совершенствования услуг, предоставляемых населению коммерческими банками. Раскрыты экономическое содержание банковских услуг для населения, их роль в деятельности банков, факторы развития услуг, клиентоориентированность, цифровая трансформация и финансовая инклюзия. Предложены интегрированная концептуальная модель совершенствования банковских услуг для населения и система показателей комплексной оценки их эффективности.

Ключевые слова: коммерческие банки, население, банковские услуги, розничные банковские услуги, цифровые банковские услуги, финансовая инклюзия, клиентоориентированность, банковские продукты, качество услуг, банковские инновации.

KIRISH

Jahon bank tizimida aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar tijorat banklari faoliyatining eng dinamik va raqobatbardosh yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyot, FinTech, sun'iy intellekt, Open Banking, masofaviy identifikatsiya va tezkor to'lov texnologiyalarining rivojlanishi bank va mijoz o'rtasidagi an'anaviy munosabatlarni tubdan o'zgartirmoqda. Natijada bank xizmatining qiymati faqat alohida mahsulot bilan emas, balki mijoz uchun yaratilgan qulaylik, tezkorlik, xavfsizlik, shaxsiylashtirish va uzluksiz xizmat tajribasi bilan belgilanmoqda.¹ Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Xalqaro hisob-kitoblar banki tadqiqotlarida raqamli moliyaviy xizmatlar va zamonaviy to'lov infratuzilmasining moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Shu nuqtayi nazardan, aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish banking

1 World Bank. The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. 2025. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex/report> ; Khera P., Ng S.Y., Ogawa S., Sahay R. Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth? IMF Working Paper No. 2021/167. <https://doi.org/10.5089/9781513584669.001> ; Tombini A. Digital payments as a boon to financial inclusion. BIS, 29.10.2023. <https://www.bis.org/speeches/sp231029.htm>; Cevik S. Promise (Un)kept? Fintech and Financial Inclusion. IMF Working Paper No. 2024/131. <https://doi.org/10.5089/9798400279195.001>



daromad bazasini diversifikatsiya qilish bilan birga, aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, jamg'armalarni bank tizimiga jalb qilish va naqdsiz hisob-kitoblarni rivojlantirishga xizmat qiladi.²

O'zbekistonda bank tizimini bozor tamoyillari asosida isloh qilish, xizmatlar sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son³ Farmoni bank tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son⁴ Farmonida esa raqamli iqtisodiyot, moliyaviy xizmatlar ommabopligi va naqdsiz hisob-kitoblarni kengaytirishga qaratilgan vazifalar belgilangan.⁵ Shunga qaramay, aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini nazariy jihatdan faqat chakana mahsulotlar majmui sifatida emas, balki mijoz ehtiyoji, raqamli kanal, xizmat sifati, moliyaviy inklyuziya, xavfsizlik va bank samaradorligini birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida talqin qilish zarurati mavjud. Mazkur maqolaning maqsadi tijorat banklari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni takomillashtirishning nazariy-konseptual asoslarini tizimlashtirish va integratsiyalashgan mualliflik modelini shakllantirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

F. S. Mishkin banklarning moliyaviy vositachilik funksiyasini tahlil qilar ekan, aholi mablag'larini jalb qilish, kreditlash va to'lov xizmatlari bank tizimining iqtisodiyotdagi asosiy funksiyalaridan ekanini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv aholiga bank xizmatlarini bankning resurs bazasi va daromadlarini shakllantiruvchi muhim yo'nalish sifatida talqin qilish imkonini beradi.⁶ J. F. Sinkey tijorat banklarining moliyaviy boshqaruvida xizmatlar diversifikatsiyasi, risk va daromadlilik o'rtasidagi bog'liqlikni asoslaydi. Mazkur qarashlardan kelib chiqib, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni takomillashtirishda mahsulotlar ko'lamini kengaytirish bilan bir qatorda kredit, operatsion, kiber va reputatsion risklarni boshqarish muhim hisoblanadi.⁷

O. G. Semenyuta, G. N. Beloglazova, L. P. Krolivetskaya hamda S. V. Sploshnov va N. L. Davydova ishlarida bank chakana biznesi mijozlarni segmentlash, omonat, kredit, karta va hisob-kitob xizmatlarini uyg'un rivojlantirish bilan bog'lanadi. Mahalliy tadqiqotlarda Sh. Z. Abdullayeva bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish, raqobatbardoshlik va zamonaviy bank texnologiyalarining ahamiyatini yoritadi.⁸ Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda esa raqamli transformatsiya bank xizmatlari nazariyasining yangi qatlamini shakllantirmoqda. Raqamlashtirish mavjud operatsiyalarni elektron shaklga o'tkazish bilan cheklanmay, mijoz bilan o'zaro aloqalar, ma'lumotlardan foydalanish, xizmat yaratish va yetkazib berish mexanizmlarini o'zgartiradi. Shu sababli aholiga bank xizmatlarining zamonaviy konsepsiyasi mahsulotga yo'naltirilgan yondashuvdan mijoz qiymatiga yo'naltirilgan yondashuvga o'tishni talab qiladi.⁹

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud yondashuvlarda alohida xizmat turlari, raqamlashtirish yoki xizmat sifati yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni raqamli infratuzilma, mijoz tajribasi, moliyaviy inklyuziya, innovatsiya va samaradorlik ko'rsatkichlari bilan birlashtiruvchi yagona konseptual mexanizmni ishlab chiqish dolzarb bo'lib qolmoqda.¹⁰

2 World Bank. The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. 2025. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex/report> ; Khera P., Ng S.Y., Ogawa S., Sahay R. Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth? IMF Working Paper No. 2021/167. <https://doi.org/10.5089/9781513584669.001> ; Tombini A. Digital payments as a boon to financial inclusion. BIS, 29.10.2023. <https://www.bis.org/speeches/sp231029.htm>; Cevik S. Promise (Un)kept? Fintech and Financial Inclusion. IMF Working Paper No. 2024/131. <https://doi.org/10.5089/9798400279195.001>

3 <https://lex.uz/docs/-4811025>

4 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni, '2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida'. <https://lex.uz/docs/4811025>; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni, '2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida'. <https://lex.uz/docs/5841063>

6 Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 13th ed. Pearson, 2022.

7 Sinkey J.F. Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry. Pearson, 2002.

8 Semenyuta O.G. Osnovy bankovskogo dela v Rossiyskoy Federatsii. Rostov-na-Donu: Feniks, 2002; Beloglazova G.N., Krolivetskaya L.P. Bankovskoe delo. Organizatsiya deyatelnosti kommercheskogo banka. Moskva: Yurayt, 2016; Sploshnov S.V., Davydova N.L. Bankovskiy roznichnyy biznes. Minsk: Vysheyschaya shkola, 2012; Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017; Mamadiyarov Z.A., Maxmudova M. va boshq. Bank ishi. Toshkent, 2021.

9 World Bank. The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. 2025. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex/report> ; Khera P., Ng S.Y., Ogawa S., Sahay R. Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth? IMF Working Paper No. 2021/167. <https://doi.org/10.5089/9781513584669.001> ; Tombini A. Digital payments as a boon to financial inclusion. BIS, 29.10.2023. <https://www.bis.org/speeches/sp231029.htm> ; Cevik S. Promise (Un)kept? Fintech and Financial Inclusion. IMF Working Paper No. 2024/131. <https://doi.org/10.5089/9798400279195.001>

10 World Bank (2025), Global Findex 2025 - <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex/report> ; Khera P. et al. (2021) - <https://doi.org/10.5089/9781513584669.001> ; Tombini A. (2023) - <https://www.bis.org/speeches/sp231029.htm> ; Cevik S. (2024) - <https://doi.org/10.5089/9798400279195.001> ; shuningdek Mishkin F.S. (2022), Sinkey J.F. (2002), Semenyuta O.G. (2002),



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, guruhlash, umumlashtirish hamda konseptual modellashirish usullaridan foydalanildi. Nazariy xulosalarni shakllantirishda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro moliya institutlarining moliyaviy inklyuziya va raqamli bank xizmatlariga oid yondashuvlari hamda O'zbekiston Respublikasining bank tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlari asos qilib olindi.¹¹ Tadqiqotdagi 1- va 2-rasmlar miqdoriy reyting yoki statistik koeffitsiyentlarni emas, balki adabiyotlar tahlili va mantiqiy tizimlashtirish asosida shakllantirilgan sifat jihatidan konseptual bog'liqlik va rivojlanish bosqichlarini ifodalaydi. Shu sababli rasmlardagi elementlar empirik baho sifatida talqin qilinmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil asosida "aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlari" tushunchasini jismoniy shaxslarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, bankning an'anaviy va raqamli kanallari orqali taqdim etiladigan, omonat, kredit, hisob-kitob, to'lov, valyuta, investitsiya va boshqa moliyaviy mahsulotlar hamda ularni qo'llab-quvvatlovchi servislar majmui sifatida talqin qilish taklif etiladi. Mazkur ta'rifda mahsulotning o'zi bilan bir qatorda xizmat kanali, sifat, xavfsizlik va mijoz tajribasi ham bank xizmatining tarkibiy elementi sifatida qaraladi (1-jadval).

1-jadval. Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarining nazariy tasnifi

Tasnif mezon	Xizmat turlari	Asosiy iqtisodiy vazifa	Takomillashtirish yo'nalishi
Moliyaviy ehtiyoj	Omonat, kredit, to'lov, valyuta, investitsiya	Jamg'arma, moliyalashtirish va hisob-kitob	Kompleks mahsulot paketlari
Xizmat kanali	Filial, bankomat, mobil ilova, internet-banking	Xizmatdan foydalanish imkoniyati	Omnikanal model
Mijoz segmenti	Yoshlar, oilalar, pensionerlar, self-employed va boshqalar	Ehtiyojga mos xizmat	Segmentatsiya va personalizatsiya
Texnologik daraja	An'anaviy, raqamli, avtomatlashtirilgan	Tezkorlik va xarajatlarni kamaytirish	AI, API, Open Banking
Xizmat natijasi	Qoniqish, sodiqlik, moliyaviy inklyuziya	Uzoq muddatli mijoz qiymati	CSI, NPS va raqamli faollik monitoringi

Taklif etilgan tasnif aholiga xizmatlarni faqat bank mahsulotlari ro'yxati sifatida emas, balki ehtiyoj, kanal, segment, texnologiya va natijani o'zaro bog'lovchi tizim sifatida ko'rish imkonini beradi. Ayniqsa, mijoz segmentlari bo'yicha xizmatlarni shaxsiylashtirish va an'anaviy hamda raqamli kanallarni yagona omnikanal muhitga birlashtirish zamonaviy bank xizmatlari konsepsiyasining asosiy belgilaridan biridir (2-jadval).

2-jadval. Aholiga bank xizmatlarini takomillashtirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar


Omil	Mazmuni	Bank faoliyatiga ta'siri	Kutilayotgan natija
Raqamli transformatsiya	Mobil banking, AI, masofaviy identifikatsiya, API	Operatsion tezlik va qulaylik oshadi	Raqamli faollik ortadi
Mijozga yo'naltirilganlik	Segmentatsiya, personalizatsiya, customer journey	Mahsulot ehtiyojga moslashadi	Qoniqish va sodiqlik ortadi
Xizmat sifati	Tezkorlik, ishonchlilik, xavfsizlik	Mijoz tajribasi yaxshilanadi	Bank obro'si va NPS oshadi
Moliyaviy inklyuziya	Masofaviy va sodda xizmatlardan foydalanish	Xizmatlar qamrovi kengayadi	Yangi mijoz segmentlari jalb qilinadi
Innovatsion salohiyat	FinTech, Open Banking, data analytics	Yangi xizmatlar yaratiladi	Raqobat ustunligi kuchayadi

Beloglazova G.N., Krolivetskaya L.P. (2016), Sploshnov S.V., Davydova N.L. (2012), Abdullayeva Sh.Z. (2017), Mamadiyarov Z.A. va boshq. (2021).

- 11 World Bank, IMF va BIS materiallari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992, PF-60, PQ-3270 va PQ-3620 hujjatlari; Mishkin F.S., Sinkey J.F., Semenyuta O.G., Beloglazova G.N., Krolivetskaya L.P., Sploshnov S.V., Davydova N.L., Abdullayeva Sh.Z., Mamadiyarov Z.A. va boshqalar; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik materiallari. Asosiy onlayn manbalar: <https://www.worldbank.org/en/publication/globalindex/report>; <https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2021/06/11/Is-Digital-Financial-Inclusion-Unlocking-Growth-460738>; <https://www.bis.org/speeches/sp231029.htm>; <https://lex.uz/docs/4811025>; <https://lex.uz/docs/5841063>; <https://cbu.uz/en/statistics/payment-systems/>



Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirishda raqamli transformatsiya, mijozga yo'naltirilganlik, xizmat sifati, moliyaviy inklyuziya va innovatsion salohiyat muhim omillar hisoblanadi. Mobil banking, sun'iy intellekt, masofaviy identifikatsiya va API texnologiyalaridan foydalanish xizmatlarning tezkorligi va qulayligini oshiradi. Shu bilan birga, segmentatsiya va personalizatsiya mijozlar ehtiyojlariga mos xizmatlarni shakllantirish, ularning qoniqishi va sodiqligini kuchaytirishga xizmat qiladi. FinTech, Open Banking va data analytics imkoniyatlaridan samarali foydalanish esa yangi xizmatlarni joriy etish, xizmatlar qamrovini kengaytirish hamda tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Aholiga bank xizmatlarini takomillashtirishning o'zaro bog'liq konseptual omillari

Rasmda raqamli transformatsiya, mijozga yo'naltirilganlik, xizmat sifati, moliyaviy inklyuziya va innovatsion salohiyat aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirishning o'zaro bog'liq tarkibiy omillari sifatida tizimlashtirilgan. Mazkur sxema omillarga shartli ball berishni nazarda tutmaydi; u nazariy manbalar tahlili asosida ularning yagona xizmat yaratish mexanizmidagi o'rnini ko'rsatadi (3-jadval).¹²


3-jadval. An'anaviy yondashuvdan integratsiyalashgan konsepsiyaga o'tish

An'anaviy yondashuv	Taklif etilayotgan konseptual yondashuv	Kutilayotgan samara
Alohida bank mahsulotlari	Mijoz ehtiyoji atrofida birlashtirilgan xizmatlar ekotizimi	Cross-sell va mijoz qiymati oshadi
Filialga bog'liq xizmat	Omnikanal va masofaviy xizmat	Qulaylik va qamrov oshadi
Standart takliflar	Segmentlangan va shaxsiylashtirilgan takliflar	Mijoz qoniqishi ortadi
Asosan moliyaviy KPI	KPI + CSI + NPS + raqamli faollik + xizmat vaqti	Kompleks boshqaruv bahosi shakllanadi
Reaktiv xizmat	Ma'lumotlar asosidagi proaktiv xizmat	Ehtiyoj oldindan aniqlanadi
Yopiq bank modeli	FinTech va Open Banking integratsiyasi	Innovatsion mahsulotlar tezlashadi

¹² World Bank (2025), Global Findex 2025 -<https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex/report>; Khara P. et al. (2021) -<https://doi.org/10.5089/9781513584669.00>; Tombini A. (2023) -<https://www.bis.org/speeches/sp231029.htm>; Cevik S. (2024) -<https://doi.org/10.5089/9798400279195.001>; shuningdek Mishkin F.S. (2022), Sinkey J.F. (2002), Semenyuta O.G. (2002), Beloglazova G.N., Krolivetskaya L.P. (2016), Sploshnov S.V., Davydova N.L. (2012), Abdullayeva Sh.Z. (2017), Mamadiyarov Z.A. va boshq. (2021).



Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy bank xizmatlari modeli bosqichma-bosqich mijozga yo'naltirilgan integratsiyalashgan konsepsiyaga o'tmoqda. Bunda alohida mahsulotlar o'rnini xizmatlar ekotizimi, filialga bog'liq xizmat o'rnini omnikanal model, standart takliflar o'rnini personalizatsiya egallaydi. Shu bilan birga, moliyaviy KPllar CSI, NPS, raqamli faollik va xizmat vaqti bilan to'ldirilib, proaktiv xizmat hamda FinTech/Open Banking integratsiyasi bank xizmatlarining samaradorligi va mijoz qiymatini oshirishga xizmat qiladi (2-rasm).



2-rasm. Aholiga bank xizmatlarini takomillashtirishning konseptual rivojlanish bosqichlari

Taklif etilayotgan model an'anaviy, asosan filial va standart mahsulotlarga tayangan xizmat ko'rsatishdan raqamli modelga, undan esa omnikanal, shaxsiylashtirilgan va natijadorligi CSI, NPS hamda KPllar orqali monitoring qilinadigan integratsiyalashgan mijozga yo'naltirilgan ekotizimga izchil o'tishni nazarda tutadi. Bosqichlar sifat jihatidan konseptual rivojlanishni ifodalaydi va shartli ballar bilan baholanmaydi (4-jadval).

4-jadval. Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlari samaradorligini kompleks baholash ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Mazmuni	Baholash yo'nalishi	Boshqaruv qarori
CSI	Mijozlarning umumiy qoniqish indeksi	Xizmat sifati	Muammoli xizmat nuqtalarini bartaraf etish
NPS	Bankni tavsiya qilishga tayyor mijozlar ulushi	Sodiqlik	Loyalty va retention dasturlarini kuchaytirish
Raqamli faollik	Mobil/internet kanallardagi faol operatsiyalar	Raqamlashtirish	Raqamli kanallarni rivojlantirish
Xizmat vaqti	Operatsiyani bajarish uchun sarflangan vaqt	Tezkorlik	Jarayonlarni avtomatlashtirish
Cross-sell	Bir mijozga to'g'ri keladigan mahsulotlar soni	Mahsulot diversifikatsiyasi	Shaxsiy takliflarni kengaytirish
Retention	Mijozlarning bankda saqlanib qolish darajasi	Munosabat barqarorligi	Mijozlarni ushlab qolish strategiyasi
Complaint resolution	Murojaatlarni hal etish tezligi va sifati	Servis boshqaruvi	Xizmat jarayonlarini qayta ko'rib chiqish

Ushbu ko'rsatkichlarni yagona monitoring panelida birlashtirish bank rahbariyatiga aholiga xizmat ko'rsatish samaradorligini faqat daromad yoki operatsiyalar hajmi orqali emas, balki mijoz tajribasi va xizmat natijadorligi orqali ham baholash imkonini beradi. Bunda moliyaviy KPllar natijani, CSI va NPS mijoz bahosini, raqamli faollik va xizmat vaqti esa operatsion jarayon sifatini aks ettiradi.

Tadqiqot natijasida aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirishning quyidagi mantiqiy zanjiri taklif etiladi: *"mijoz ehtiyojini aniqlash → segmentatsiya → mos bank mahsulotini shakllantirish → optimal xizmat kanalini tanlash → raqamli va an'anaviy kanallarni integratsiyalash → xavfsiz va tezkor xizmat ko'rsatish → CSI/NPS/KPI orqali natijani baholash → ma'lumotlar asosida xizmatni qayta takomillashtirish"*. Ushbu modelning muhim jihati xizmatni bir martalik bank operatsiyasi sifatida emas, balki doimiy takomillashib boruvchi mijoz qiymati sikli sifatida ko'rishdan iborat. Mazkur yondashuv mijoz qiymati va raqamli transformatsiya haqidagi zamonaviy nazariy qarashlar bilan uyg'unlashadi.¹³

13 World Bank. The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. 2025. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex/report> ; Khera P., Ng S.Y., Ogawa S., Sahay R. Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth? IMF Working Paper No. 2021/167. <https://doi.org/10.5089/9781513584669.001>; Tombini A. Digital payments as a boon to financial inclusion. BIS, 29.10.2023. <https://www.bis.org/speeches/sp231029.htm>; Cevik S. Promise (Un)kept? Fintech and Financial Inclusion. IMF Working Paper No. 2024/131. <https://doi.org/10.5089/9798400279195.001>



Konseptual modelda beshta o'zaro bog'liq blok ajratiladi: 1) mijoz ehtiyoji va segmenti; 2) bank mahsulotlari portfeli; 3) xizmat kanallari va raqamli infratuzilma; 4) xizmat sifati, xavfsizlik va risk boshqaruvi; 5) natijadorlik monitoringi. Ushbu bloklardan biridagi zaiflik butun xizmat zanjirining samaradorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli takomillashtirish alohida mobil ilova yoki mahsulotni joriy etish bilan cheklanmasdan, kompleks boshqaruv mexanizmi asosida amalga oshirilishi lozim.¹⁴

Asosiy Ilmiy Natijalar

1. "Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlari" tushunchasiga mahsulot, kanal, sifat, xavfsizlik va mijoz tajribasini birlashtiruvchi kengaytirilgan mualliflik talqini taklif etildi.
2. Aholiga bank xizmatlari ehtiyoj, xizmat kanali, mijoz segmenti, texnologik daraja va xizmat natijasi bo'yicha tizimlashtirildi.
3. Raqamli transformatsiya, mijozga yo'naltirilganlik, xizmat sifati, moliyaviy inklyuziya va innovatsion salohiyat o'zaro bog'liq asosiy omillar sifatida ajratildi.
4. An'anaviy mahsulotga yo'naltirilgan modeldan integratsiyalashgan, omnikanal va mijozga yo'naltirilgan modelga o'tishning konseptual mexanizmi ishlab chiqildi.
5. Bank xizmatlari samaradorligini KPI, CSI, NPS, raqamli faollik, xizmat vaqti, cross-sell, retention va murojaatlarni hal etish ko'rsatkichlari asosida kompleks baholash tizimi taklif etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari tijorat banklari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni takomillashtirish raqamli transformatsiya, mijozga yo'naltirilganlik, xizmat sifati, moliyaviy inklyuziya va innovatsion salohiyatning o'zaro uyg'un rivojlanishiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Zamonaviy sharoitda bank xizmatining qiymati alohida mahsulot xususiyatidan ko'ra mijozning butun xizmat tajribasi bilan belgilanmoqda.

Tijorat banklariga mijozlarni ehtiyoj va moliyaviy xulq-atvoriga ko'ra segmentlash, shaxsiylashtirilgan mahsulotlarni kengaytirish, mobil va internet-banking funksionalligini rivojlantirish, omnikanal xizmat modelini shakllantirish hamda CSI va NPS ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish tavsiya etiladi. Bank xizmatlarini raqamlashtirishda axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, operatsion barqarorlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish xizmat qulayligi bilan bir xil darajada ustuvor bo'lishi kerak. Open Banking, sun'iy intellekt va FinTech yechimlari bankning mavjud risk boshqaruvi va ichki nazorat tizimlari bilan integratsiyalashgan holda joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Taklif etilgan nazariy-konseptual model tijorat banklarining aholiga xizmat ko'rsatish strategiyasini ishlab chiqish, xizmatlar portfelini qayta ko'rib chiqish va xizmat natijadorligini kompleks baholashda metodologik asos sifatida qo'llanishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda model komponentlarini banklar kesimidagi real statistik ma'lumotlar asosida ekonometrik sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. *The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy*. Washington, D.C., 2025.
2. Khera P., Ng S., Ogawa S., Sahay R. *Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth?* IMF Working Paper, 2021.
3. Tombini A. *Digital Payments as a Boon to Financial Inclusion*. BIS Speech, 29 October 2023. Bank for International Settlements.
4. Cevik S. *Promise (Un)kept? Fintech and Financial Inclusion*. IMF Working Paper, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son¹⁵ Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son¹⁶ Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-son¹⁷ Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son¹⁸ Qarori.
9. Mishkin F. S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 13th ed. Pearson, 2022.
10. Sinkey J. F. *Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry*. Pearson, 2002.

14 Qarang: World Bank (2025), Global Findex 2025 -<https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex/report>; Khera P. et al. (2021) -<https://doi.org/10.5089/9781513584669.001>; Tombini A. (2023) -<https://www.bis.org/speeches/sp231029.htm>; Cevik S. (2024) -<https://doi.org/10.5089/9798400279195.001>; shuningdek Mishkin F.S. (2022), Sinkey J.F. (2002), Semenyuta O.G. (2002), Beloglazova G.N., Krolyivetskaya L.P. (2016), Sploshnov S.V., Davydova N.L. (2012), Abdullayeva Sh.Z. (2017), Mamadiyarov Z.A. va boshq. (2021).

15 <https://lex.uz/docs/-4811025>

16 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

17 <https://lex.uz/uz/docs/-3342348>

18 <https://lex.uz/docs/-3593541>



11. Семенюта О. Г. *Основы банковского дела в Российской Федерации: учебное пособие*. Ростов-на-Дону: Феникс, 2002. 448 с.
12. Белоглазова Г. Н., Кроливецкая Л. П. *Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка*. Москва: Юрайт, 2016.
13. Сплошнов С. В., Давыдова Н. Л. *Банковский розничный бизнес*. Минск: Вышэйшая школа, 2012.
14. Abdullayeva Sh. Z. *Bank ishi*. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017.
15. Mamadiyarov Z. A., Maxmudova M. va boshqalar. *Bank ishi*. Toshkent, 2021.
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *To'lov tizimi ko'rsatkichlari: rasmiy statistik ma'lumotlar*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>